

**ABDULLA QODIRIYNING "MEHROBDAN CHAYON" ROMANIDA JAHON
NASRIGA XOS TARIXIYLIK VA REALIZM****Teshayeva Fotima Sherbek qizi,**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

"Jurnalistika va o'zbek filologiyasi fakulteti

"Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyot" mutaxassisligi

2-kurs magistranti Fotimteshayeva2002@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida jahon nasriga xos tarixiylik va realizm tamoyillarining badiiy talqini tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy roman janrining nazariy asoslari, tarixiylik prinsipining romandagi namoyon bo'lish shakllari, shuningdek, realizm usulining asosiy belgilari – tipik xarakterlarni tipik sharoitda tasvirlash, ijtimoiy ziddiyatlarni ochiq yoritish, xalq tilining boy imkoniyatlaridan foydalanish kabi jihatlari o'rganilgan. Qodiriy romanda Qo'qon xonligining so'nggi yillaridagi real tarixiy shaxslar (Amir Umarxon, Madalixon, Xudoyorxon) va voqealarni badiiy talqin qilgan holda, ularni xalq hayotining barcha qatlamlari bilan uzviy bog'liq holda tasvirlagan. Romanda zakot tizimi, majburiy mehnat, soliq zulmi kabi ijtimoiy muammolar oddiy qahramonlar taqdiri orqali umumlashtirilgan holda aks ettirilgan. Shuningdek, maqolada Qodiriy asarining tili va uslubi realizm talablariga qanchalik javob berishi, har bir qahramonning o'z ijtimoiy tabaqasi va xarakteriga mos tilda so'zlashishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tarixiylik, realizm, Abdulla Qodiriy, "Mehrobdan chayon", tarixiy roman, jahon nasri an'analari, tipik xarakter, ijtimoiy ziddiyat, feodal tuzum, badiiy uslub.

Аннотация. В данной статье анализируется художественная интерпретация принципов историзма и реализма, свойственных мировой прозе, в романе Абдуллы Кадыри «Скорпион с алтаря». В исследовании рассматриваются теоретические основы жанра исторического романа, формы проявления принципа историзма в романе, а также основные признаки метода реализма – изображение типичных характеров в типичных обстоятельствах, открытое освещение социальных противоречий, использование богатых возможностей народного языка. Кадыри в романе, художественно интерпретируя реальные исторические личности (Амир Умархан, Мадалихан, Худоярхан) и события последних лет Кокандского ханства, изображает их в неразрывной связи со всеми слоями народной жизни. Социальные проблемы, такие как система закята, принудительный труд, налоговый гнет, отражены в романе через судьбы простых героев. Также в статье анализируется, насколько язык и стиль произведения Кадыри отвечают требованиям реализма, как каждый герой говорит на языке, соответствующем его социальному происхождению и характеру.

Ключевые слова: историзм, реализм, Абдулла Кадыри, «Скорпион с алтаря», исторический роман, традиции мировой прозы, типический характер, социальный конфликт, феодальный строй, художественный стиль.

Abstract. This article analyzes the artistic interpretation of historicity and realism principles characteristic of world prose in Abdulla Qodiriy's novel "Scorpion from the Mihrab". The study examines the theoretical foundations of the historical novel genre, the manifestations of the principle of historicity in the novel, as well as the main features of the realism method – depicting typical characters in typical circumstances, openly illuminating social contradictions, and utilizing the rich possibilities of the folk language. Qodiriy, artistically interpreting real historical figures (Amir Umarchan, Madalikhon, Khudoyarkhan) and events of the final years of the Kokand Khanate, portrays them in inseparable connection with all layers of people's life. Social problems such as the zakat system, forced labor, and tax oppression are reflected in the novel through the fates of ordinary heroes. The article also analyzes how the language and style of Qodiriy's work meet the requirements of realism, and how each character speaks in a language corresponding to their social background and character.

Keywords: historicity, realism, Abdulla Qodiriy, "Scorpion from the Mihrab", historical novel, traditions of world prose, typical character, social conflict, feudal system, artistic style.

Kirish. O‘zbek adabiyotida roman janrining shakllanishi va taraqqiyoti milliy badiiy tafakkur tarixida muhim bosqichni tashkil etadi. Abdulla Qodiriy nafaqat o‘zbek realistik romanining asoschisi, balki Sharq va G‘arb adabiy an‘analarini uyg‘unlashtirgan ijodkor sifatida namoyon bo‘ladi. Uning 1928 yilda yozib tugallagan "Mehrobdan chayon" romani Qo‘qon xonligining so‘nggi yillaridagi murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni, feodal tuzum illatlarini realistik tasvirlashning yorqin namunasi.

Tarixiy roman masalasi adabiyotshunoslikda turlicha talqin etiladi. Ayrim tadqiqotchilar tarixiy roman uchun asarda tarixiy shaxsning ishtiroki shart deb hisoblasa, boshqalar bunday asarlarning tarixiy hujjatlar asosida yaratilishi va undagi voqealar tarixiy xarakterga ega bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydilar. Yana bir qarashga ko‘ra, tarixiy romanda tarixiy shaxsning bo‘lishi majburiy emas, biroq asarda tasvirlangan voqea va hodisalar tarixiy asosga ega bo‘lishi zarur [1: 196].

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – "Mehrobdan chayon" romanida jahon nasriga xos tarixiylik va realizm tamoyillarining badiiy talqinini ochib berish. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, romandagi tarixiylik va realizm masalalari qiyosiy-adabiy yondashuv asosida, jahon nasri an‘analari bilan bog‘liq holda maxsus tahlil qilinadi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy (kontakt-genetik) va tizimli-tahliliy yondashuvlar yetakchi metodologik tamoyil sifatida qo‘llanildi. Roman matnini tahlil qilishda struktural, badiiy-estetik va tavsiflash usullaridan foydalanilib, asardagi tarixiy shaxslar, voqealar, ijtimoiy munosabatlar va badiiy obrazlar kompleks tahlil etildi. Tarixiylik prinsipini o‘rganishda real tarixiy shaxslarning (Amir Umarxon, Madalixon, Xudoyorxon, Buxoro amiri Bahodirxon) romanda qanday badiiy talqin qilinganligi, tarixiy faktlarning qay darajada saqlanganligi va ularga qanday badiiy to‘qima elementlari qo‘shilganligi aniqlashtirildi.

Realizm usulini tahlil qilishda esa V.G.Belinskiy, D.Quronov, H.Umurov kabi olimlarning nazariy qarashlariga tayanib, asardagi tipik xarakterlarni tipik sharoitda tasvirlash, ijtimoiy ziddiyatlarni ochiq yoritish, til va uslubning xalqchilligi kabi mezonlar asos qilib olindi.

Natijalar.

3.1. Romanda tarixiylik prinsipining namoyon bo‘lishi

"Mehrobdan chayon" romanida bir qancha tarixiy shaxslar – xonlar, ulamolar, amaldorlar – badiiy talqinda berilgan. Ular orasida Amir Umarxon, Madalixon, Buxoro amiri Bahodirxon, Xudoyorxon, domla Niyoz, shayxulislom Valixon to‘ra kabi shaxslar romanda real nomlari bilan qatnashadi.

Amir Umarxon va Madalixon. Romanda Amir Umarxonning saroydagi yosh kanizakka bo‘lgan muhabbati, unga uylana olmay vafot etishi, so‘ngra o‘sha kanizakning Madalixonni ham o‘ziga oshiq qilishi haqida hikoya qilinadi. Qodiriy bu tarixiy faktni badiiy mahorat bilan rivojlantirib, xonning shaxsiy his-tuyg‘ulari va diniy qonunlar

o'rtasidagi ziddiyatni ko'rsatadi. Madalixon otasining kanizagini nikohlab olish uchun ulamolardan fatvo so'raydi. Romanda bu hol quyidagicha ifodalangan:

"Ba nazdi mujtahidini kirom asli e'tibor aqdi shar'iydir... Otangiz marhum – nikohlanaman deb aytkan bo'lsalar ham nikohlandim, deb aytmaganlar. Bas, amiralmo'minin mazkurani xud nafslari aqdi shar'iy qilsalar joiz va durustdir" [2: 9].

Ushbu fatvo matni orqali Qodiriy din va siyosat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni, ulamolarning hukmdor irodasiga qanday moslashganligini real tasvirlaydi.

Xudoyorxon obrazi. Qodiriy Xudoyorxon haqida tarixiy faktlarni badiiylashtirib keltiradi:

"1283-nci hijriydan 1292-ncigacha bo'lg'an sakkiz yil, Xudoyorning erkin nafas olib, Farg'ona ustida o'zi tilagancha qamchi o'ynatqan va zulm tig'ini kambag'allar qoni bilan sarbast bo'yag'an so'ngg'i davridir" [2: 117].

Ushbu iborada muallifning chuqur kinoyasi bor. Xon o'z xohish-irodasi bilan "erkin nafas olgan" bo'lsa, oddiy xalq aynan shu sakkiz yil davomida xonning "qamchi ostida" yashab, uning "zulm tig'idan" jon saqlagan. Qodiriy "qamchi o'ynatish" va "zulm tig'ini qonga bo'yash" kabi metaforalar orqali Xudoyorxon hokimiyatining shafqatsiz tabiatini ochib beradi.

3.2. Romanda realizm usulining ifodasi

Realizm (lotincha realis – mavjud, haqiqiy) adabiyotshunoslikda ham tor, ham keng ma'nolarda qo'llanadi. Keng ma'noda u badiiy asar va unda aks ettirilgan voqelik bilan real hayot o'rtasidagi munosabatga tayanadi. Realizmning muhim estetik mezonlaridan biri – hayotiy voqea va hodisalarni aniq hamda ishonchli detallar orqali ifodalash, shu asosda tipik xarakterlarni ular yashayotgan tipik sharoit bilan uzviy bog'liq holda tasvirlashdir [3: 256].

Zakot tizimi va feodal zulm tasviri. Asarda Abdulla Qodiriy zakot masalalarini va feodal tuzumni realistik uslubda mohirona tasvirlaydi:

"Bultur ana shu kezda, bozorg'a sakkizta bo'z olib tushkan edim. Birarta mushkit ig'vo qildimi zakotchining tomog'i taqilladimi, harchi falakat, qo'ltug'imdagi bo'zni yoppa oldi, qo'ydi; "otang yaxshi, onang yaxshi, kosibman, savdogar bo'lsam uyim kuysin"... Asti qo'ysa-chi... Bir yillik zakoting deb ko'tardi ketti. Qo'lingdan nima keladi... Mol ketdi – jon ketdi, ishqa ham qo'lim bormaydi" [2: 69].

Ushbu parcha – xonlikdagi soliq tizimi qanday ishlaganini ko'rsatuvchi eng yorqin namunalardan biridir. Zakotchi aslida diniy burch sifatida qaralgan zakotni undirish uchun emas, balki xalqni talash, xonning xazinasini to'ldirish va shaxsiy manfaatlarini qondirish uchun kelgan. Qodiriy bu orqali nafaqat moddiy talonchilikni, balki inson qadr-qimmatini oyoq osti qilishni ham tasvirlaydi.

Majburiy mehnat tasviri. Qodiriy "Mehrobdan chayon" romanida majburiy mehnatni tasvirlar ekan, bir jihatga alohida to'xtalib o'tadi:

"Har bir oila, garchi, ro'zg'or boshlug'ini bo'lsa ham, bitta ketman bilan xon ta'yin qilgan joyga yo'llay boshladi" [2: 118].

Bu gapda "garchi ro'zg'or boshlug'ini bo'lsa ham" degan so'zlar juda muhim. Uning boshlig'i – otasi, boquvchisi – o'z uyini, xotinini, bolalarini tashlab ketishga majbur. Qodiriy bu tasvir orqali feodal tuzimning eng og'ir tomonlarini ko'rsatadi: inson qadr-qimmatini yo'qotadi, u asbobga aylanadi, uning mehnati bepul tortib olinadi.

Til va uslub realistik talablari. Abdulla Qodiriy o'z asarlarida, xususan, "Mehrobdan chayon" romanida o'zbek tilining barcha boyligi va rang-barangligini namoyish eta olgan yozuvchidir. Romanda turli tabaqa vakillari – zolim xon, ikkiyuzlamachi amaldor, ziqna domla, sodda kosib, jasur yigit va o'qimishli qiz – har biri o'ziga xos uslubda so'zlashadi.

Belinskiy ta'kidlaganidek, "ulug' milliy shoir – xo'jayinni ham mujikni ham o'z tillarida birday gapirtirishga qobiliyatli bo'ladi" [4: 376]. Qodiriy aynan shunday mahoratni namoyish etadi: Safar bo'zchining sodda, ba'zan qo'pol, lekin jonli va ta'sirchan nutqi; Solih mahdumning diniy atamalar bilan to'ldirilgan, murakkab uslubi; Anvar va Ra'noning adabiy, she'riy, nozik ifodalari – bularning barchasi realizm talablariga to'liq javob beradi.

Munozara. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Mehrobdan chayon" romanida Qodiriy tarixiylik prinsipiga amal qilgan holda, Qo'qon xonligining so'nggi yillaridagi real tarixiy shaxslar va voqealarni badiiy talqin qilgan. Yozuvchi tarixiy faktlarni sinchkovlik bilan tanlab, ularni xalq hayotining barcha qatlamlari – etnografik lavhalar, urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy bog'liq holda tasvirlagan.

Qodiriyshunos olim Umarali Normatov o'zining "Qodiriy mo'jizasi" asarida "Mehrobdan chayon" romanidagi realizm va tarixiylikni quyidagicha ta'kidlaydi:

"Garchi "Mehrobdan chayon" asarida davr zulmi va uning ta'siri muayyan darajada aks etsa-da, ayrim holatlarda muallifning tarafkashlikka moyilligi ham seziladi. Shunga qaramay, u fikrlarini ehtiyotkorlik bilan ifodalab, davr talablari bilan uyg'un gaplar keltiradi. Asl mohiyatda esa muallif realizm pozitsiyasida turib, tarixiy haqiqatni imkon qadar xolis va ishonchli tarzda yoritishga intiladi" [5: 145].. Aynan mana shu jihat – tarixiy voqealarni realistik tasvirlash orqali o'sha davrning haqiqiy qiyofasini o'quvchiga yetkazish – Qodiriy asarining badiiy va ilmiy qimmatini belgilaydi. Romanda tarixiy shaxslar va voqealar sinchkovlik bilan tanlab olingan, ijtimoiy munosabatlar, soliq zulmi, majburiy mehnat, tabaqaviy tengsizlik kabi muammolar hech qanday bezaksiz, jonli va haqqoniy tasvirlangan.

Qodiriy romanida realizmning yana bir muhim jihati – bu kambag'allikning og'ir hayotini tasvirlashdir. Anvar va uning otasi Salim bo'yoqchining hayotini tasvirlash orqali Qodiriy kambag'allik qanchalik og'ir ekanligini ko'rsatadi:

"Bolalari ko'paygan sayin Salim akaning ishi ham keyinga ketkanidek, kundan-kun ehtiyojdan-ehtiyojga o'tib borar edi" [2: 47].

Bu gap kambag'al oilalarning eng katta muammosini ko'rsatadi: bola ko'p, daromad kam. Bola ko'paygan sari ehtiyoj oshadi, lekin ish yaxshilanmaydi, aksincha, og'irlashadi. Qodiriy bu obrazlar orqali nafaqat moddiy qashshoqlikni, balki insonning ruhiy sinishi, umidsizlik va taqdirga bo'ysunish holatini ham realistik tasvirlaydi.

Xulosa. "Mehrobdan chayon" romanida Abdulla Qodiriy tarixiylik prinsipiga amal qilgan holda, Qo'qon xonligining so'nggi yillaridagi real tarixiy shaxslar (Amir Umarxon, Madalixon, Xudoyorxon, Buxoro amiri Bahodirxon va boshqalar) va voqealarni badiiy talqin qilgan. Yozuvchi tarixiy faktlarni sinchkovlik bilan tanlab, ularni xalq hayotining barcha qatlamlari – etnografik lavhalar, urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy bog'liq holda tasvirlagan. Bu esa asarni nafaqat badiiy, balki tarixiy va madaniy manba darajasiga ko'taradi.

Qodiriy romanda realizm usulining asosiy tamoyillariga – tipik xarakterlarni tipik sharoitda tasvirlash, hayotiy voqealarni ishonchli detallar orqali ifodalash, ijtimoiy ziddiyatlarni ochiq va tanqidiy yoritish – to'liq amal qilgan. Xususan, zakot tizimi, majburiy mehnat, kambag'allik va soliq zulmi kabi ijtimoiy muammolar Safar bo'zchi, Anvar va uning otasi Salim bo'yoqchi kabi oddiy qahramonlar taqdiri orqali umumlashtirilgan holda aks ettirilgan.

Asarning tili va uslubi ham realizm talablariga javob beradi: har bir qahramon o'z ijtimoiy tabaqasi va xarakteriga mos tilda so'zlashadi. Qodiriy nafaqat tilning lug'aviy va grammatik imkoniyatlaridan unumli foydalanadi, balki har bir qahramonning ichki dunyosi va ijtimoiy mavqeini til vositasida ham his qilish imkonini beradi.

Shu tariqa, "Mehrobdan chayon" romani nafaqat o'zbek adabiyotining badiiy durdonasi, balki jahon tarixiy romanchiligi kontekstida realizm va tarixiylik tamoyillarining o'ziga xos va mukammal namunasi sifatida qaralishi mumkin. Qodiriy asari o'zbek romanchilik maktabida jahon nasri an'analari ijodiy o'zlashtirishning eng yorqin misollaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirvaliyev S. Tarixiylik va zamonaviylik. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. – 196 b.
2. Qodiriy A. Mehrobdan chayon: roman. – Toshkent: Sharq, 2013. – 288 b.
3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi "Xalq merosi" nashriyoti, 2004. – 264 b.
4. Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. – 376 b.
5. Normatov U. Qodiriy mo'jizasi: talqin, qayd, suhbat va mulohazalar / mas'ul muharrir B. Karimov. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 272 b.
6. D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 408 b.
7. Yoqubov I. O'zbek romani tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006. – 164 b.